



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 9 - avgust

VI-64-156-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **Tuman mahalliy budjetining 2023-yil II chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budjetining 2023-yil II chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi, tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil II chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 4 148,0 mln.so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi R.Kabulova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining  
2023-yil 9-avgustdagi  
VI-64-156-8-109-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Angor tuman mahalliy budjetining joriy yil davomiga ko‘ra qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag‘lar**

<b>T/r</b>	<b>Tashkilotlar nomi</b>	<b>Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi</b>	<b>Miqdori (ming.so‘mda)</b>	<b>Foiz hisobida</b>
	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
	<b>Jami tuman budjetining 2023-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar</b>		<b>4 148 000,0</b>	<b>100%</b>
<b>I.</b>	<b>Tuman hokimligi va boshqa budjet tashkilotlarini ta‘mirlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun</b>		<b>280 507,1</b>	<b>6,8%</b>
1,1	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi xodimlarini 2022-yil aprel, may, iyun oylari rag‘batlantirish va yagona ijtimoiy soliq xarajatlari uchun	124 689,0	3,0%
1,2	Xalq deputatlari tuman Kengashi	Xalq deputatlar tuman Kengashining xodimlarini 2022-yil noyabr, dekabr oylari rag‘batlantirish va yagona ijtimoiy soliq xarajatlari uchun	7 259,0	0,2%

1,3	Tuman Ko'zi o'jizlar jamiyati	Viloyat hokimining 2021-yil 24-aprel kunidagi yig'ilish bayoniga asosan O'zbekiston ko'zi o'jizlar jamiyati Angor tuman bo'linmasining xodimlarni (2022-yil 4-chorak oktabr, noyabr, dekabr) 3-oylik ish haqi uchun	16 664,1	0,4%
1,4	Tuman hokimligi (Nogironlar jamiyati Angor tuman bo'linmasi)	Viloyat hokimining 2021-yil 24-aprel kunidagi yig'ilish bayoniga asosan O'zbekiston Nogironlar jamiyati Angor tuman bo'linmasining xodimlarni 2022-yil 6-oylik ish haqi uchun	32 000,0	0,8%
1,5	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi axborot xizmati xodimlarining ish haqi xarajatlar (2023-yil iyul, avgust, sentabr oylari) uchun	23 445,0	0,6%
1,6	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi At-Termiziy ko'chasini ko'kalamzorlashtirish, hududlarga sug'orish tizimlarini va suv chiqarish quduqlarini tashkil etish uchun	60 000,0	1,4%
1,7	Tuman hokimligi	Nizolar bo'yicha sudga da'vo arizasi berish uchun davlat boji to'lashga hamda sud hujjatlarini ijrosi yuzasidan davlat bojidan yuzaga kelgan qarzdorlik xarajatlari uchun	16 450,0	0,4%